

MILLIY MUSIQIY MEROS ASOSIDA YOSHLARNING ESTETIK DIDI VA BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY JIHATLARI

*FarDU Musiqiy ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
U.V.Mamadjanov*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada milliy musiqiy meros asosida yoshlarning estetik didi va badiiy tafakkurini rivojlanirish mazmunini tushunish va his etishga katta ta'siri, musiqaning kishilar hissiyoti va tafakkuriga ta'sir o'tkazib, yon-atrofdagi voqelikni emotsional idrok etishi hamda uni qayta tiklash va o'zgarish, musiqa kishi hissiyotiga, tafakkuriga, dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishi, uni ma'lum maqsad sari yo'llashi, yon-atrofga bo'lgan munosabatini o'zgartishi va hayrixohligi xaqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: milliy musiqa, estetika, did, badiiylik, meros, tafakkur, hissiyot, falsafiy, emotsional, tarbiya.

Аннотация

В данной статье рассматривается большое влияние на понимание и восприятие содержания развития эстетических вкусов и художественного мышления молодежи на основе национального музыкального наследия, влияние музыки на чувства и мышление людей, эмоциональное восприятие окружающей действительности и ее переосмысление и изменение, влияние музыки на чувства, мышление, мировоззрение человека, направляющее его к определенной цели, на восприятие окружающего мира.- приводится информация о том, что он меняет свое отношение к окружающей среде и проявляет энтузиазм.

Ключевые слова: национальная музыка, эстетика, вкус, артистизм, наследие, мышление, эмоции, философские, эмоциональные, воспитательные.

Annotation

This article provides information about the great influence of music on the understanding and feeling of the content of the development of aesthetic taste and artistic thinking of young people on the basis of national musical heritage, the emotional perception of the surrounding reality, as well as its restoration and transformation, the influence of music on the feeling, thinking, worldview of a person,

Keywords: national music, aesthetics, taste, artistry, heritage, thinking, feeling, philosophical, emotional, upbringing.

Estetik did va badiiy tafakkur - inson ma'naviy kamolotida muhim o'rinn tutuvchi omillardan biri bo'lib, biror kishining xoxish - istagi tufayli emas, jamiyatning qonuniy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan zaruriyatdir. Estetik tarbiyaga

e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q. Uning ildizlari uzoq o'tmishtga borib taqaladi. Qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Rumo faylasuflari insonning ma'naviy va jismoniy kamoloti masalalariga jiddiy e'tibor qaratishgan. Arastu, Navoiy, Rumiy kabi mutafakkirlar ta'limotlarida ma'naviy kamolot, komillikning muhim sharti sifatida ta'kidlab o'tilgan. Bugungi davrda ham insonni borliqdagi go'zalikka, nafosat olamiga yaqinlashtirish, ya'ni estetik tarbiya davlatimizning ijtimoiy rivojlantirish vazifalari bilan chambarchas bog'liqidir. CHunki estetik tarbiya ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga tegishlidir.

"Biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyatni va unda har bir shaxsning yuksak estetik didga erishishi zamon talabidir. CHunki estetik did egasigina haqiqiy erkin fikrlash salohiyatiga, dunyo, Vatanni, hayotni go'zallik prizmasi orqali ko'rish qobiliyatiga ega bo'ladi"¹. Estetik tarbiyaning vazifasi faqatgina go'zallikni tushunish va baholashni o'rgatish emas, ijtimoiy hayotda amalga oshirish uchun faol ishtirok etishga undashdir.

"Estetik tarbiya muammosi avvaldan jamoatchilik diqqat markazida. So'nggi paytlarda bu to'g'risida juda ko'p fikrlar aytildi. Ba'zilar estetik tarbiyaning asosiy vazifasi xalqda ijodiy faollikni tarbiyalash, deyishsa boshqalar go'zallikni xunuklikdan farqlashni o'rgatish, uchinchilar yuksak ma'naviyat, rivojlangan estetik didni tarbiyalash deya ta'kidlashadi"². Darhaqiqat, estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri estetik did tarbiyasidir. Estetik ong tizimida o'ziga xos o'rinn tutuvchi estetik did eng nozik, ziddiyatli, murakkab shuningdek qiziqarli va dolzab masalalardan biri. Estetik didning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning voqelikka, narsa yoki hodisaga ko'rgan holatda beriladigan bahoda namoyon bo'ladi. Ilk bor ko'rib turgan san'at asari, mutoala qilingan kitobga mushtariy yoshi, kasbi, ma'lumoti darajasiga ko'ra turlicha baho beradi. Mana shu jihatning o'zi uning faqat alohida insonga xos bo'lgan ammo, jamiyat uchun ham muhim ekanligini, ya'ni «shaxsiy masala» emasligini ko'rsatadi. Bu oddiygina «yoqadi yoki yoqmaydi» so'zları orqali ifodalansada bizning estetik didimiz, dunyoqarashimiz, madaniyatimizni namoyon etadi. Bu bahoda bizning qarashlarimiz, tajribamiz, biz yashayotgan jamiyat, davr qarashlari ham ma'lum ma'noda aks etadi.

Estetik did his - tuyg'u va tafakkur birligi, inson o'zligini ifodalovchi, bir vaqtning o'zida ham uning, ham unga berilgan baho hamdir. Estetik did biz yashagan davr, biz ko'z ochgan vatan, biz eshitgan qo'shiq, biz qiziqib o'qiydigan kitob, gazeta – jurnallar kabi ma'naviy boyliklarni idrok etish jarayonida shakllanadi va rivojlanib boradi. "Har bir inson o'z davlatining fuqarosi bo'lgani kabi, o'z davrining ham fuqarosidir va agar o'zing yashayotgan axloq va odatlar

¹ Эстетика. Услубий қўлланма. Умаров Э, Шеров А, Хусанов Б..-Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар жамияти, 2010. –Б. 102.

² Махмудов Т. Эстетика и духовные ценности. – Тошкент: ГРИПК Шарқ, 1993.–С. 278.

bilan o'sha doiradan chiqish mumkin bo'lmasa, unda o'z faoliyating, diding va ehtiyojlaringni tanlash"³ mumkin.

Estetik did insonni o'rab turgan muhit orqali shakllanadi. Inson go'zal buyumlar va narsalar olamida yashasa, g'oyaviy-estetik jihatdan yetuk badiiy asarlar va matbuot bilan muloqotda bo'lsa, go'zallikdan zavqlanishni o'rganadi, uni his etadi, uni yaratadi. Aksincha tuban muhit, inson didini ham tubanlashtirib qo'yadi. Badiiy did bilan estetik did bir-biridan farq qilsa-da, har doim bir-birini to'ldirib boradi. Badiiy did estetik didga asoslanadi. turli janrlardagi badiiy adabiyot namunalari-hikoyalar, qissalar, mumtoz asarlar, ulardagi badiiy obrazlar, tasviriy vositalar jurnalxonning hissiyotlariga ta'sir ko'rsatadi, badiiy qadriyatlarni idrok etish va o'zlashtirishiga yordam beradi, estetik zavq bag'ishlaydi.

O'zbekistonda modernizatsiyalash davrida ma'naviyatimizni yuksaltirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Har qanday mustaqil davlat o'zining yuksak ma'naviyati va madaniyati bilan qudratlidir.

O
l
i
m

A
.S
H

Musiqaning, agar ijro mahorat bilan bajarilsa, yaxshisi va yomoni bo'imasligi ma'lum. Musiqa turini qaysi biri ma'qul bo'lishi shaxsning yoshi, millati, musiqaviy madaniyat saviyasi, musiqaning tarkibi, estetik didning darajasi, kishining individual psixologik xususiyatlari kabi bir qator omillarga bog'liq. Yoshlar katta yoshdagilarga nisbatan rok musiqasini ma'qul ko'rishlari yuqoridagilar bilan birga yana eng muhim ikki omil bilan belgilanadi:

1. Yosh bilan bog'liq psixologik xususiyatlar. Ma'lumki, yoshlik, serfaoliyatlichkeit, harakatchanlik, tinib-tinchimaslichkeit va h.k.

2. Moda va tengdoshlarga taqlid. Yoshlar o'z tengdoshlaridan ko'p narsalar oladilar, ko'r-ko'rona taqlid qiladilar. Har bir yoshda individual orzularidan tashqari umumiy manzaraga ergashish tamoyillari mavjud.

Musiqiy - estetik tarbiya jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Omma orasida

q
l

³Шиллер Ф. Собрание сочинений.– Т-6. М.: Государственное изд. худ. лит. 1957.–С. 253.

⁴А.Шер,Б.Хусанов, Э.Умаров. Эстетика. Тошкент.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти. 2010, - Б.92.

musiqali targ'ibot olib bormay turib, to'laqonli natijalarga erishib bo'lmaydi. Yoshlar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi.

Musiqa yoshlar tarbiyasiga har tomonlama yordam berishi, tevarak-atrofni obrazli - emotsiyal idrok etishi va o'smir xarakterining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- 1.Yoshlarning musiqaviy qobiliyatini rivojlantirish.

- 2.Yoshlarni ashula aytish va musiqaviy-ritmik malakalarga o'rgatish. Ularda musiqani qabul qilish, his etish va tushunish qobiliyatlarini tarbiyalash.

3. Yoshlarda badiiy - ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Bu vazifalarning hammasi bir-biri bilan o'zaro mustahkam bog'langan. Birinchi vazifani ko'rib chiqamiz. Musiqaviylik deganda nimani tushunish kerak? Bu sifat o'z ichiga qimmatli ikki tomonni oladi:

- a) emotsiyal jonkuyarlilik - musiqa asarining uning obrazli mazmuniga aloqador qayg'ura olish qobiliyati;

- b) yoshlarda asarning musiqa-tovush materialini ajratishni ta'minlaydigan musiqa idroki va musiqaviy qobiliyatlarni rivojlantirish. Musiqaviylikni har ikkala tomoni ham ajralmas birlikda turadi va bir vaqtning o'zida tarbiyalanadi. Musiqaviylikning rivojlanishi tufayli yoshlar musiqa obrazlarini - ularning atrofdagi qo'shimcha obrazlarni yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa o'z navbatida, ularning tevarak-atrofini bilihda, estetik baholashni tarbiyalashda, badiiy didni, musiqaga muhabbatni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. O'smirning musiqaviyligi uning faol musiqaviy faoliyati orqadi tarbiyalanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Estetika. Uslubiy qo'llanma. Umarov E, SHerov.A, Xusanov B..-Toshkent: O'zbekiston faylasuflar jamiyati, 2010. –B. 102.
2. Maxmudov T. Estetika i duxovnye tsennosti. – Toshkent: GRIPK SHark, 1993.–S. 278.
3. SHiller F. Sobranie sochineniy.– T-6. M.: Gosudarstvennoe izd. xud. lit. 1957.–S. 253.
4. ¹A.SHer,B.Husanov, E.Umarov. Estetika. Toshkent.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2010, - B.92.